

PRESS RELEASE PRESS-RELIZ

2020-yil 15-sentabr

## Shvedcha innovatsiya global mehmonxonalar sanoatida inqilob yasaydi

Har qanday mehmonxona uchun birinchi ustuvor vazifa o‘z mehmonlarining yaxshi uxmlashi va orom olishidir. Ushbu xizmat, shu bilan birga, mehmonxonada qulay to’shak bo‘lishi kafolatini ham o‘z ichiga olishi kerak; shu paytgacha bu bajarib bo‘lmaydigan va’da bo‘lib keldi, chunki har bir mehmon turlicha qattiqlikdagi matrasni xohlaydi. Endilikda Shvetsiyaning YouBed kompaniyasi shaxsiy ta’bga ko‘ra o‘zgartirish mumkin bo‘lgan innovatsion to’shakni taklif qilarkan, bu narsa o‘zgarishlarga olib keladi. “Business Sweden” Shvetsiya savdo va investitsiyalar kengashi bilan hamkorlikda YouBed kompaniyasi hozirda o‘zining “barchaga mos keladiga to’shak” innovatsiyasini butun dunyo bo‘ylab mehmonxonalar tarmog‘iga olib kirmoqda.



Shvetsiyaning YouBed kompaniyasi uyqu uchun yuqori darajadagi qulaylikni ta’minlaydigan prujina blokli matrasning qattiqlik darajasini sozlashning yangi usulni ixtiro qildi. Barcha uchun mos keladigan to’shak yechimi butun dunyo bo‘ylab mehmonxonalar sanoatida inqilob qiladigan noyob uyqu konsepsiysi orqali taqdim etiladi va u mehmonxonalarga har bir mehmon uchun munosib qulaylikni taklif qilish imkonini beradi, bular qulay mehmonxona yotog‘ining kafolati va yaxshi orom olish uchun eng yaxshi sharoitlardan iborat.

- Moslashtirilgan uyqu qulayligi bu nihoyat mehmonxonalarga o‘z imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish imkonini beradigan ko‘pdan beri yetishmayotgan bo‘g‘in edi. Umid qilamizki, ko‘pchilik bunga mehmonxonalarning o‘z taklifi va raqobatbardoshligini oshirish uchun ajoyib imkoniyat deb qaraydi. Agar bizning innovatsiyamiz mehmonxonalar sohasida inqilob yasasa, men hayron bo‘lmayman va bu

yangilikni imkon qadar maksimal qo'llab-quvvatlash bizning zimmamizdadir. Shu sababli biz ko'p yillar davomida uyqu konsepsiyasini sinovdan o'tkazish, kutilayotgan global talabni qondirish uchun infratuzilma va imkoniyatlarni yaratishga yillarni sarfladik, deydi bosh ijrochi direktor va YouBed ta'sischisi Mattias Sörensen.

YouBed'ning uyqu konsepsiysi hozirda Business Sweden tashkiloti va boshqa hukumat idoralari bilan o'ziga xos hamkorlikda global miqyosda olib kirilmoqda. Youbed kompaniyasining 44 ta yangi filiali dunyoning har bir bozorini ta'minlash qobiliyatiga ega bo'lib, ular butun dunyo bo'ylab mahalliy darajada ushbu yangilikni olib kirishi kutilayotgan mintaqaviy mehmonxonalar guruhlari bilan allaqachon muzokaralar olib bormoqda.

- YouBed o'zining mavjud qo'llab-quvvatlash tuzilmalari foydalanishga erta qaror qildi, bu yetakchi kompaniyalarning global bozorlarga tez kirishiga imkon beradi. Jarayonga erta kirishar ekanmiz, biz ushbu uzoq muddatli biznes munosabatlar asosida ishtirokimizni moslashimiz mumkin bo'ladi. Biz Shvetsiyaning transmilliy kompaniyasining tashkil etilishida qatnashganimizdan va bu kompaniyaning inqilobiy o'zgartirishlar qiladigan darajadagi innovatsiyasini munosib darajada qo'llab-quvvatlayotganimizdan g'oyat faxrlanamiz, deydi Business Sweden'ning ijrochi vitse-prezidenti hamda Strategiya va biznesni rivojlantirish bo'limi boshlig'i Fredrik Fexe.

YouBed to'shlari hozirda Yevropadagi barcha Mövenpick mehmonxonalarida, shuningdek, Scandinavian First Hotels and Scandic Hotels mehmonxonalarida mavjud. YouBed'ning uyqu konsepsiysi dastlab korporativ brendni tanishtirish uchun taqdim etiladi va u muayyan mehmonxonalar tarmog'iga kiruvchi barcha mehmonxonalarni o'z ichiga oladi. [www.youbed.com](http://www.youbed.com)

#### **Qo'shimcha ma'lumot uchun murojaat qiling:**

Xonim Elena Koshcheeva, YouBed'ning Russia & Eastern Europe Office filialidagi ofis menejeri, [RussiaEasternEurope@youbedglobal.com](mailto:RussiaEasternEurope@youbedglobal.com), telefon: +7 800 301 45 66

#### **YouBed haqida**

Shvetsiyaning YouBed kompaniyasi yuqori sifatli prujina blokli matrasning qattiqlik darajasini sozlashning yangi usulni ixtiro qildi va patentladi. Sozlash pult boshqaruvi yordamida tez va osonlik bilan va eng yuqori darajadagi to'shak va uxlash qulayligini buzmagan holda amalga oshiriladi. Siz ,shuningdek, foydalanuvchining bo'y, vazni, tana tuzilishi yoki qanday holatda uxlashni afzal ko'rishidan qat'iy nazar, barcha foydalanuvchilar uchun optimal uyqu sharoitiga erishish uchun to'shakning turli qismlari qattiqligini (yelka va bel, masalan) alohida sozlasshingiz mumkin. Buning natijasi - bu dunyodagi birinchi moslashuvchan to'shak bo'lib, u qulaylikni kafolatlaydi va uyqu va to'shak muhim rol o'ynaydigan sohalarda keng imkoniyatlar ochadi va qiymat yaratiladi.

#### **Business Sweden Shvetsiya savdo va investitsiyalar kengashi haqida**

Business Sweden Shvetsiya savdo va investitsiyalar kengashi Shvetsiya kompaniyalariga global savdo hajmini oshirishga va xalqaro kompaniyalarga Shvetsiyaga sarmoya kiritish va faoliyatini kengaytirishga yordam beradi. Business Sweden tashkiloti shved kompaniyalariga bozorga chiqish vaqtini qisqartirish, yangi daromad oqimlarini topish va xavflarni kamaytirish orqali yordam beradi. Bu tashkilot, shuningdek, xalqaro kompaniyalarga yangi biznes imkoniyatlarini topishda, kapitalning daromadililigini oshirishda yordam beradi va xolis qo'llab-quvvatlaydi. Barcha darajadagi tarmoqlar orqali bu tashkilot dunyoning eng manfaatli 44 ta bozorida strategik maslahat va moddiy yordamni taklif qiladi. Business Sweden tashkiloti davlat va biznes hamjamiyati tomonidan birgalikda egalik qilinadi.



## Kompaniya haqida

|                        |  |
|------------------------|--|
| Tashkil etilgan yili:  | 2012   |
| Daromad / Natija:      | Global miqyosga sotuvga chiqarish uchun sharoitlarni optimallashtirish maqsadida 2018-yilda konsepsiyanı sinovdan o'tkazish davridan beri hali hech qanday sotuv bo'lgani yo'q.  |
| Direktorlar kengashi:  | Mattias Sörensen, bosh ijrochi direktor va ta'sischi<br>Stefan Hyltenfeldt; bosh texnik direktor va ta'sischi<br>Lars Björklund; Intellektual mulk bo'limi rahbari va Shvetsiya patent agentligining sobiq prezidenti<br>Olle Bergström: Telia kompaniyasida Global dasturlarni boshqarish va amaliyotlar bo'limi xodimi |
| Filia llar soni:       | 44   |
| Xodimlar va tashkilot: | Taxminan 250 ta (maslahatchilar bilan birga) xodim, ulardan 14 tasi Stokgolmdagi bosh ofisda, qolganlari dunyo bo'y lab 44 mintaqaviy filiallarda faoliyat ko'rsatadi.   |
| Bozorlar:              | Butun dunyo bo'y lab   |
| Egaları soni:          | 109  |
| Jalb qilingan kapital: | 6 million yevro  |

## Innovatsiya


- Shvetsiyaning YouBed kompaniyasi yuqori sifatlari prujina blokli matrasning qattiqlik darajasini sozlashning yangi usulini ixtiro qildi va patentladi va bu uxlashda doimo yuqori darajada huzur bag'ishlaydi.
- Matrasning qattiqligini maksimal darajaga o'z xohishingizga ko'ra sozlash uchun butun matrasning yoki uning turli qismlarining qattiqligini alohida ravishda sozlashningiz mumkin. Sozlash butun matrasni boshqaradigan masofadan boshqarish pulti yordamida osongina amalgalashadi.
- Sozlanuvchan YouBed to'shagi eng so'nggi karkas-to'shak texnologiyasiga asoslangan bo'lib, u ikki qatlamlili prujina bloklariga butun to'shak uzunligi bo'y lab mustaqil ravishda o'z funksiyasini bajarish, foydalanuvchining vazni va tana tuzilishini yaxshiroq singdirish imkonini beradi.
- Prujina blok tizimini pulti yordamida osongina siqish yoki bo'shatish va bu orqali eng yuqori darajadagi qulaylikni to'liq ta'minlagan holda matrasni yanada qattiqroq yoki yumshoqroq qilish mumkin. Shuningdek, o'zingizga qulaylikni mukammal darajada yaratishga erishish uchun matrasning turli qismlarini jumladan yelka va bel qismlari qattiqligini alohida ravishda aniq sozlashningiz mumkin.
- Boshqaruv pulti doimo har bir foydalanuvchiga keyinchalik foydalanish uchun o'ziga xos qulaylik taqdim etgan holda to'shakning aniq belgilangan qattiqlik darajasini namoyish etadi.
- Foydalanuvchining bo'y, vazni, tana tuzilishi yoki uning qay holatda uxlashni afzal ko'rishidan qat'iy nazar, YouBed har bir foydalanuvchining shaxsiy ehtiyojlarini qondiradi.



## Konsepsiyaning tajribada sinab ko'riliishi

2 000 dan ortiq sotilgan YouBed to'shlari asosida biz oddiy yig'ilmaydigan to'shlarni sozlanuvchan YouBed to'shlariga almashtirishning aniq natijasini tahlil qilish va baholash imkoniyatiga ega bo'ldik. Turli xil tadqiqotlardan olingen natijalar o'ta ijobjiy bo'ldi, ammo bu ajablanarli holat emas, chunki bu to'shlar birinchi marta ushbu sohaning asosiy biznesini tijoratlashtirish effektini namoyish etadi.

- Yirik miqyosda o'tkazilgan NPS (mijozlar sodiqligi ko'rsatkichini o'rganish) tadqiqoti shuni ko'rsatdiki, oddiy to'shak YouBed bilan almashtirilganda PR qiluvchi sodiq mijozlar soni (mijozlar qoniqishining eng yuqori darajasi) salmoqli darajada, ya'ni 14%<sup>1</sup> ga ko'paygan (odatda mijozlar qoniqishida 3-5% o'sish yutuq hisoblanadi).
- Mijozlarning sodiqligi keskin darajada oshdi. YouBed to'shagi bo'lgan xonada uxlaganlarning 80% dan ko'prog'i keyingi tashrif paytida xuddi shunday xona toifasini tanlashlarini aytgan, qolgan 20% qismi esa boshqa toifadagi xonalarni tanlashini aytgan.
- Mukofot puli to'lashga tayyorlik darajasi oshdi va har bir xona sotilgan kechada xonalarning o'rtacha narxi 20 yevroga<sup>2</sup> oshdi.
- Bu texnologiyaning mehmonxonaga yangi mehmonlarni jalb qilish qobiliyati tufayli xona va mehmonxonalar bandlik darajasi sezilarli darajada oshdi.
- YouBed uchun kiritilgan investitsiyalarni qoplash muddati 3 oydan 6 oygacha bo'lgan vaqtini tashkil etadi, bu degani investitsiyalar mahsulotning amal qilish davri davomida har yili 2-4 barobar qoplanadi (8 yildan keyin 16-32 barobar qoplanadi).
- Xarid qilish haqida qaror qabul qilishdan oldin har bir mehmonxonalar tarmog'ini konsepsiyanı sinab ko'rish va uning samarasini baholashga taklif etamiz.



<sup>1</sup> <https://www.loopon.com/blog/adjustable-beds-study>

<sup>2</sup> Turli daromadlardan o'rtacha qiymat va bizning konsepsiyanı tajribada sinab ko'rish bo'yicha hamkorlarimizda o'tkazilgan mijozlar ehtiyojini qondirishni o'rganish tadqiqotlarimiz haqida ma'lumot: Mövenpick mehmonxonasi va kurortlari, First Hotels and Scandic Hotels.